

O'ZBEKISTONDA FISKAL SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA ILMIY YONDASHUVLAR

Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

To'rtko'l fakulteti katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19691049>

Mustaqillikdan so'ng respublikamiz iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash hamda bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralib kelmoqda. Ayniqsa, fiskal siyosatni takomillashtirish orqali byudjet intizomini mustahkamlash, soliq tizimini modernizatsiya qilish va davlat xarajatlarining samaradorligini oshirish iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda fiskal siyosat nafaqat davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini boshqarish vositasi, balki iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlovchi strategik mexanizm sifatida ham qaraladi.

O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı iqtisodiy islohotlar, xususan, soliq siyosatini liberallashtirish, byudjet jarayonining shaffofligini oshirish hamda fiskal boshqaruv tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha chora-tadbirlar fiskal siyosatning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini yanada kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, mamlakatda iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash, hududlar rivojlanishidagi nomutanosibliklarni kamaytirish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va aholi farovonligini oshirish masalalari fiskal siyosat samaradorligini oshirish bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur jarayonlar O'zbekistonlik olimlar tomonidan ham keng o'rganilib, fiskal siyosatning iqtisodiy o'sishga ta'siri, davlat byudjeti muvozanati, soliq ma'murchiligi samaradorligi, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish hamda inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash kabi masalalar bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Shu sababli fiskal siyosatning iqtisodiy o'sish bilan o'zaro bog'liqligini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirish hamda ularning iqtisodiy siyosatni takomillashtirishdagi ahamiyatini aniqlash muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillikdan keyin O'zbekistonda xam iqtisodiy barqarorlikni saqlash, byudjet intizomini mustahkamlash, soliqlarni modernizatsiya qilish orqali iqtisodiy o'sishning sifatini oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralgan va xozirda xam izlanishlar olib borilmoqda. Professor A.Vahobovning tadqiqotlarida fiskal siyosatning iqtisodiy o'sishdagi roli, xususan, investitsiyalarni rag'batlantirish, soliq yukini optimallashtirish va davlat xarajatlarini samarali yo'naltirish orqali barqaror makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash masalalari chuqur yoritilgan. Professor Sh.Xo'jayev esa davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining o'zaro muvozanatini iqtisodiy o'sishning zarur sharti deb biladi. Uning nazarida, fiskal siyosatning "muvozanatlashgan byudjet" modeli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda eng maqbul yondashuvdir.

Shu bilan birga so'nggi yillarda respublikamizda yosh olim va tadqiqotchilar bu borada ko'pgina ilmiy izlanishlar olib borolmoqdalar. Jumladan, professor H. Hakimov o'z ilmiy izlanishlarida iqtisodiyotning real sektorini rag'batlantirishga yo'naltirilgan fiskal siyosat qoidalari va byudjet xarajatlari samaradorlik ko'rsatkichlarini ishlab chiqish hamda byudjetdan moliyalashtiriladigan subsidiya va taqdim etiladigan imtiyozlarning iqtisodiy samaradorligidan kelib chiqib tartibga solish taklifi asoslangan[1]. Shuningdek, U.Vosiqov davlat byudjetidan

ijtimoiy himoyani moliyalashtirishda jinslar kesimida tizimli yondashuvni joriy etish orqali ijtimoiy dasturlar samaradorligini oshirish va manzilli yordamni kuchaytirishni asoslab bergan.

Respublikamiz aholisining tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan bir sharoitida, fiskal siyosat va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi mutanosiblikni takomillashtirish masalasi bo'yicha yana bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan. S.Amirdjanova O'zbekistonning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashning kalit omillaridan biri bo'lgan, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini qo'llash orqali bandlik siyosatini moliyalashtirish samaradorligi oshishi, resurslar aniq ehtiyojga yo'naltirilishi va hududlarda mehnat bozorining tarkibiy muammolari hal etilishini asoslagan. Bu yondashuv natijasida barqaror va sifatli bandlik, soliqlar bazasining kengayishi, ijtimoiy himoya qamrovining oshishi va iqtisodiy o'sishning inklyuzivligi kuchayishi nazariy jihatdan isbotlangan[2]. M.Turdimuratov O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni miqdordan sifatga o'tkazishning, uni inklyuziv va barqaror qilishning ilmiy asoslangan konsepsiyasi fiskal siyosatning samaradorligiga bevosita bog'liqligi, ya'ni fiskal siyosat shaffof, kontrtsiklik va samarali bo'lsa, iqtisodiy o'sish nafaqat tezlashishi, balki inklyuziv va barqaror tus olishini ilgari surgan. N.Xolboevning "inklyuziv iqtisodiy o'sish" indeksi ishlab chiqilishi shuni anglatadiki, endi o'sish nafaqat YaIM hajmi bilan, balki aholining daromadlar tarkibi, mehnat unumdorligi, zaif qatlamlarning iqtisodiy imkoniyatlari bilan ham o'lchanadi. S.Isanturdiyev barqaror iqtisodiy o'sish, ijtimoiy infratuzilma, aholini ijtimoiy himoyalash tushunchalarini nazariy-uslubiy yondashuvlar orqali o'rgangan bo'lib, bu tushunchalar fiskal siyosatning strategik ahamiyatini yanada oshiradi. Fiskal siyosatning zamonaviy maqsadi bo'lib, faqat defitsit va qarzni nazorat qilish emas, balki barqaror, inklyuziv va hududiy jihatdan muvozanatli iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi boshqaruv vositasiga aylanishdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-2025 yillarda amalga oshirilgan moliyaviy va fiskal islohotlar o'zbekistonlik olimlar tadqiqotlariga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Bularga prezidentimizning PF-4947 sonli farmonida harakatlar strategiyasida byudjet siyosatini takomillashtirish, davlat moliyasining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, soliq yukini kamaytirish asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. PF-6061 farmonida esa O'zbekiston Respublikasining 2020–2023 yillarga mo'ljallangan soliq siyosatini yanada isloh qilish, fiskal barqarorlikni mustahkamlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish choralari nazarda tutilgan. 2021-yildan boshlab O'zbekiston davlat byudjeti ilk bor xalqaro GFS (Government Finance Statistics) standartlariga mos ravishda shakllantirilib, fiskal siyosatda xalqaro tajribaga integratsiya qilindi.

Bizning fikrimizcha, O'zbekiston so'nggi yillarda fiskal siyosat orqali iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda muhim yutuqlarga erishdi: byudjet shaffofligi oshdi, soliq tizimi modernizatsiyalandi, kapital bozoridan foydalanish kengaydi. Ammo uzoq muddatli barqarorlik uchun defitsit va qarz nazorati, xarajatlar sifati, hududiy fiskal mustaqillik va fiskal-monetar muvofiqlikni kuchaytirish zarur.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son
2. Hakimov H.A. "Fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish" mavzusidagi i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferat. 2025 y., 11-12 betlar.
3. Vosiqov U.A. "Aholi daromadlari tabaqalanishi va kambag'allikni qisqartirishda fiskal

siyosatdan foydalanish” mavzusidagi i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferat. Toshkent-2025. 11-15 betlar.

4. Amirdjanova S.S. “Barqaror iqtisodiy o’sish sharoitida aholi bandligini ta’minlashning makroiqtisodiy jihatlar” mavzusidagi iqtisodiyot bo’yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferat. 2023.9-11 betlar.

5. Turdimuratov M.M. “Barqaror iqtisodiy o’sishni ta’minlash asosida aholi turmush sifatini oshirish” mavzusidagi iqtisodiyot bo’yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferat. 2023.7-10 betlar.

6. Xolbayev N.B. “O‘zbekistonda inklyuziv iqtisodiy o’sishni ta’minlash mexanizmini takomillashtirish” mavzusidagi iqtisodiyot bo’yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferat. 2024.8-10 betlar.

7. Isanturdiyev S.Yu. “Barqaror iqtisodiy o’sishni ta’minlashda ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirishning nazariy asoslari” mavzusidagi iqtisodiyot bo’yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferat. 2024.7-9 betlar.